

Harakatli o'yinlarni qo'llash asosida o'smir kurashchilarning sport motivatsiyasini rivojlantirish

Laziz Axrorovich Azimov
olimovlaziz82@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 11-13 yoshli kurashchilarning sport motivatsiyasini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni qo'llash samaradorligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: harakatli o'yinlar, sport motivatsiyasi, motiv, boshlang'ich tayyorgarlik

Development of sports motivation of young wrestlers through the use of movement games

Laziz Axrorovich Azimov
olimovlaziz82@gmail.com
Bukhara State University

Abstract: The article describes the effectiveness of the use of mobile games for the development of sports motivation in wrestling among 11-13 years old participants at the initial preparatory stage.

Keywords: action games, sports motivation, motive, initial training

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportga, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirishga va ommaviylashtirishga ustivor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. "Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakillantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda". Sportchi yoshlarimiz nufuzli xalqaro musobaqalarda sovrinli o'rinlarni egallamoqda.

Jahonda harakatli o'yinlar orqali o'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama sog'lom, yuksak intellektual salohiyatga ega va jismonan barkamol qilib tarbiyalashning eng samarali vositasi sifatida qo'llanib kelinmoqda. Harakatli o'yinlar boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi o'smir yakka kurashchilarning psixologik va yoshga xos xususiyatlariga to'liq mos keladigan sharoitlarni yuzaga keltirishda, turli harakat faolyati sharoitlarida ularni asoslarini egallashda, bolalarning jamoaviy va individual faolligi bilan birga harakat sifatlarini rivojlantirishda samarali

vosita vazifasini o'tashi mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi. Bugungi kungacha o'tkazilgan tadqiqot ishlarida harakatli o'yinlar o'smir sportchilarning har tomonlama tayyorgarligining eng samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichining eng asosiy vazifalaridan biri butanlangan sport turiga motivatsyani rivojlantirish hisoblanadi. Sport motivini shakillantirish va rivojlantirish yuzasidan bir qator mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Biroq o'tkazilgan tadqiqotlarda sport motivatsiyasini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni qo'llash masalasini nazardan chetga qolgan.

Tadqiqot maqsadi: o'smir kurashchilarning sport motivatsiyasini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni qo'llash samaradorligini pedagogik tajribada tekshirish.

Tadqiqot vazifalari:

- O'smir kurashchilarning sport motivatsiyasining rivojlantirishda harakatli o'yinlarni tabaqalashtirish;

- O'smir kurashchilarning sport motivatsiyasining rivojlantirishda harakatli o'yinlarni qo'llash samaradorligi pedagogik tajribada tekshirish.

Tadqiqot usullari: ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi, psixologik testlash, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, matematik-statistik uslu.

Tadqiqotni tashkillashtirish: tajrib yakka kurash sport turlariga ixtisoslashgan bolalar-o'smirlar sport maktabining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 11-13 yoshli kurashchilarning o'quv-mashg'ulotlari jarayonida o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalari va uning muxokamasi. O'tkazilgan tadqiqotlarda sport motivatsiyasini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni qo'llash masalasi nazardan chetga qolganligini inobatga olgan holda yakkakurash sport turlariga turdosh bo'lgan harakatli o'yinlar tabaqalashtirildi ["Oyoqqa ehtiyot bo'l!", "Mokissimon yugurish musobaqasi", "Arqonga tegib ketma", "Po'sht-po'sht", "Xo'rozlar jangi", "Bir daqiqa-yuzta zarba", "Quvlashmashoq", "Ringda quvlashmashoq", "Baliq ushlab", "Tun va kun", "Chaqqon oyoqlar jamoasi" va boshqalar].

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi o'smir yakkakurashchilarning sport motivatsiyasini rivojlantirishda o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan harakatli o'yinlarning samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari quydagicha bo'ldi.

Pedagogik tajribadan oldin nazorat guruhidagi o'smir kurashchilarning berilgan uchta savolga javoblarning o'rtacha qiymati 2,70+-0,23 ballga, tajriba guruhidagi sportchilarning javoblari esa o'rtacha 2,72+-0,17 ballga teng bo'ldi ($p>0,05$).

O'tkazilgan pedagogik tajribadan so'ng "Sizga kurash yoqadimi?", degan savolga nisbatan nazorat guruhi kurashchilarining javob natijalari o'rtacha 2,75+-0,24 ballga, tajriba guruhi kurashchilarining javob natijalari o'rtacha 2,94+-0,12 ballga teng bo'ldi. Ko'rsatkichlar orasida statistik faktlar $p>0,05$ ga teng.

“Sizga yana qaytadan o’zingiz yoqtirgan sport turini tanlash imkoniyati berilganda, siz yana ushbu sport turini tanlagan bo’larmidingiz?”, - deb berilgan savolimizga pedagogik tajribadan oldin nazorat guruhi kurashchilarining javob natijalari o’rtacha 2,28+-0,25 ballga, tajriba guruhi kurashchilarining javob natijalari o’rtacha 2,25+-0,14 ballga teng bo’lganligi o’tkazilgan matematik-statistik tahlillardan aniqlandi (javoblar quydagicha).

Pedagogik tajribadan so’ng mazkur motiv yuzasidan o’tkazilgan anketa so’rovnomasi natijasida quydagilar aniqlandi. Unga ko’ra, nazorat guruhidagi o’smir kurashchilarning bergan javoblarini o’rtacha balli 2,30+-0,26 ga, tajriba guruhidagi kurashchilarning o’rtacha balli 2,65+-0,6 ga teng.

Pedagogik tajribadan oldin “Sizda kurasgdan ko’ngil sovish hissi vujudga kelganmi?”, - degan savolimizga respondentlarning 58% “Yo’q, menda bunday holat bo’lmagan” - deb javob bergan. 15% kurashchilarda kam hollarda kurash sportidan ko’ngil sovush holatlari kuzatilar ekan. 27% kurashchilarda sport turidan ko’ngil sovish holatlari bo’lishi va bu hol uzoq vaqt davom etishi ma’lum bo’lgan.

Nazorat guruhi sportchilarining to’rtinchi savolimizga bergan javobi pedagogik tajribadan so’ng o’rtacha 2,34+-0,21 ballga, tajriba guruhida o’rtacha 2,82+-0,34 ballga teng. Ko’rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchli emas ($p > 0,05$).

Beshinchi savolimizga nisbatan pedagogik tajribadan oldin nazorat va tajriba guruhlari sportchilari javoblarining o’rtacha qiymati deyarli bir-biridan farq qilmadi (mos ravishda 2,10+-0,19; 2,12+-0,54). O’tkazilgan pedagogik tajribadan so’ng yuqoridagi savolga nazorat guruhi kurashchilarining javoblari o’rtacha 2,18+-0,17 ballga, tajriba guruhi kurashchilarining javob natijalari o’rtacha 2,88+-0,23 ballga teng. Ko’rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchligi $t=3,41$; $p > 0,05$ ga teng.

Boshlang’ich tayyorgarlik bosqichida shug’ullanuvchi o’smir kurashchilarning 52% o’quv-mashg’ulotlari jarayonida mashq qilishga va qiyinchiliklarni yengishga undovchi kuch ushbu sport turiga bo’lgan muhabbat va yuqori natijalarga erishish istagi ekanligini bildirgan.

Pedagogik tajribadan oldin 48% kurashchilarda mashq qilishga va qiyinchiliklarni yengishga undovchi kuch - sport turiga bo’lgan muhabbat va yuksak natijalarga erishish istagi ekan. Ushbu savolga 37% kurashchilar kuchli va chaqqon bo’lish uchun yangi usullarni o’rganish istagi bo’lganligini sabab qilib ko’rsatgan.

Pedagogik tajribadan oldin “Mashg’ulotlarga qatnashga Siz qanday munosabat bildirasiz?”, - deb berilgan savolga nazorat guruhi kurashchilarining bergan javoblari o’rtacha 2,36+-0,34 ga, o’tkazilgan pedagogik tajribadan so’ng, olingan javoblarnig o’rtacha qiymari 2,32+-0,62 ballga teng ekanligi aniqlandi. Yuqorida keltirilgan savol bilan tajriba guruhi kurashchilariga murojaat qilinganda, pedagogik tajribadan oldin 2,40+-0,63 ballga, o’tkazilgan pedagogik tajribadan so’ng 2,90+-0,91 ballga teng

ekanligi aniqlandi. Ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi $t=2,9$; $p>0,05$ ga teng.

Xulosa. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi o'smir yoshdagi kurashchining sport motivatsiyasini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik amalyotga joriy etish quyidagi natijalarni beradi:

- Kurashda ko'ngil sovish hissini vujudga keltiruvchi sabablar bartaraf etildi, musobaqalarda qatnashish va raqiblar ustidan g'alaba qozonishga bo'lgan motivatsiya shakillantirildi, sportchining mashg'ulotlarda iroda faolligini oshirish, sport to'garaklarida mashg'ulotlarga qatnashishga munosabatni yaxshilandi;

- Sport mashg'ulotlarida bolalarning zerikish hissini yoqotishga yordam berish, ularning emotsional holatini yaxshilab, charchash hissini kechiktiruvchi vosita sifatida samaradorligi pedagogik tajribada isbotlandi.

Nazorat guruhidagi 11-13 yoshli kurashchilarda barqarorlikka ega bo'lmagan qiziqishlar aniqlandi (26,92 ball), tajriba guruhi kurashchilarida o'rtacha ball 32,8+-1,2 ga teng, ya'ni barqaror qiziqishning rivojlanganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov L. A., Ruzimboev M. A. RESEARCH PARK. - 2021.
2. Arslanov K. P., Azimov L. A. Interactive methods of the didactic process applied in teaching the discipline «National martial arts and technologies of its teaching» // Педагогическое образование и наука. - 2020. - Т. 3. - С. 40.
3. Azimov L. ТРУДНОСТИ ОНЛАЙН-ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). - 2020. - Т. 2. - №. 2.
4. Azimov L. DZYUDO MUSOBAQALARIDA ENG KO'P QO'LLANILADIGAN USULLAR VA ULARNING ANAMIYATI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). - 2020. - Т. 2. - №. 2.
5. Azimov L. Pedagogika tarixida gimnastika // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). - 2021. - Т. 3. - №. 3.
6. Azimov L. Pedagogika tarixida gimnastika // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). - 2021. - Т. 3. - №. 3.
7. Афраимов А. А., Азимов Л. А. Защита и методы национальной борьбы // Academy. - 2019. - №. 6 (45). - С. 92-93.
8. Азимов Л. А. ТРУДНОСТИ ОНЛАЙН-ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ // Проблемы науки. - 2021. - №. 2 (61). - С. 41-43.
9. Azimov L. ТРУДНОСТИ ОНЛАЙН-ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). - 2020. - Т. 2. - №. 2.

10. Azimov L. DZYUDO MUSOBAQALARIDA ENG KO'P QO'LLANILADIGAN USULLAR VA ULARNING AHAMIYATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 2. - №. 2.
11. Курбанов Д. И., Абдуллаев Ш. Д. Методологические подходы к изучению правил физической активности женского спорта //Научный журнал. - 2019. - №. 6 (40). - С. 88-89.
12. Абдуллаев Ш. Д., Курбанов Д. И., Курбанов Ф. К. Использование современных методов в процессе обучения студентов легкой атлетике //Проблемы науки. - 2021. - №. 2 (61). - С. 32-34.
13. Хамраев И. Т., Курбанов Д. И., Тураев М. М. ПРИНЦИПЫ СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. - №. 2.
14. Kurbanov D. I. et al. Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari //Science and Education. - 2022. - Т. 3. - №. 4. - С. 1423-1430.
15. Kurbanov D. QUESTIONS OF PHYSICAL CULTURE IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI Kurbanov Djurabek Ismatovich Teacher at the Department of Theory and Methods of Physical Culture //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.
16. Ismatovich K. D. et al. BARKAMOL YOSHLAR TARBIYASIDA KO'PKARI SPORT MUSOBAQALARINING O'RNI: 10.53885/edinres. 2021.10. 77.015 Kurbanov Djurabek Ismatovich Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston Akramova Gulhayov Mexriddin qizi Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston //Научно-практическая конференция. - 2021.
17. Kurbanov D. БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 8. - №. 8.
18. Kurbanov D. ИСТОРИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПЕРВОБЫТНОМ ОБЩЕСТВЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 8. - №. 8.
19. Kurbanov D. Ushbu maqola Jismoniy madaniyat yunalishi uchun //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.
20. Ismatovich K. D. PHYSICAL EDUCATION IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE AGES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. - 2022. - Т. 3. - №. 02. - С. 82-93.
21. Тураев М. М. МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ //Проблемы науки. - 2021. - №. 2 (61). - С. 35-37.

22. Мухамедович Т.М. Важные факторы организации медицинских кружков по физическому воспитанию // ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКИЙ ЖУРНАЛ МЕДИЦИНСКИХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК. - 2022. - Т. 3. - №. 1. - С. 82-86.

23. Тураев М. Важные факторы организации медицинских кружков по физической культуре //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 8. - №. 8.

24. Тураев М. М. ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ //Вестник науки и образования. - 2021. - №. 5-3 (118). - С. 99-102.

25. Тураев М. Important Factors for the Organization of Medical Groups in Physical Education //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 8. - №. 8.

26. Тураев М. М., Баймурадов Р. С., Файзиев Я. З. Интерактивные методы физического воспитания в вузах //Педагогическое образование и наука. - 2020. - №. 3. - С. 132-135

27. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009

28. Elov Z.S. O‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447

29. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2021. Buxoro 1-164.

30. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.

31. Elov, Z. S. (2022). O ‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. Science and Education, 3(3), 442-447.

32. EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017

33. Furqatovich, U. F., & Sattarovich, E. Z. (2022). SUICIDE-AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 349-354.